


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Qizilo‘ngach va oshqozon rekonstruktiv qayta tiklash xirurgiyasida qizilo‘ngach anastomozlari va transplantatlarini shakllantirishda torako-laparoskopik texnologiyalarni ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: -qizilo‘ngach va me‘da kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda hosil qilingan transplantat va qizilo‘ngach anastomozidan kelib chiqadigan asoratlarni hal qilish yo‘llarini aniqlash uchun qizilo‘ngach va oshqozonda ochiq laparotomiya va torakotomiya rekonstruktiv qayta tiklash operatsiyalarining qoniqarsiz natijalari sabablari kompleksini tanqidiy tahlil qilish amalga oshiriladi; -qizilo‘ngach-oshqozon, qizilo‘ngach-ingichka ichak va qizilo‘ngach-yo‘g‘on ichaklar aro anastomozlarning chandiqli torayishi sabablari ishlatiladigan tikuv materiallariga va qizilo‘ngach anastomozining shakllanish darajasiga qarab morfologik jihatdan o‘rganiladi; -qizilo‘ngach anastomozlarining chandiqli torayishi rivojlanishidagi reflyuksning ahamiyati uning hosil bo‘lish turiga va anastomoz qilingan organga (oshqozon, ingichka yoki yo‘g‘on ichak) qarab aniqlanadi; -yo‘g‘on ichakning angioarxitekturasining xususiyatlariga qarab yo‘g‘on ichak transplantatlarini shakllantirishga yangi yondashuvlar ishlab chiqiladi, bu esa kolotransplantat uzunligining yetarli emasligi yoki haddan tashqari uzunligi oldini oladi; -tikuvchi va kesuvchi apparatlarning turli xil variantlarini birgalikda qo‘llash bilan oshqozon transplantatini yanada uzaytirishning yangi texnik usullari ishlab chiqiladi; -operatsiyaning rekonstruktiv bosqichida ishlatiladigan anastomoz sathiga (bo‘yin, plevra yoki qorin bo‘shlig‘i) va tikilgan organlarga qarab (oshqozon, ingichka yoki yo‘g‘on ichak), qo‘l bilan yoki apparat yordamida shakllantirilgan anastomozlarni differensial yondashuvi ishlab chiqiladi; -erta va uzoq muddatli natijalarni tahlil qilishda, shakllantirilgan qo‘l yordamida va mexanik anastomozlar asosida qizilo‘ngach va oshqozonda rekonstruktiv qayta tiklash operatsiyalarning spetsifik asoratlarni oldini olish yo‘llari ishlab chiqiladi; -yo‘g‘on ichak transplantatlarini shakllantirishda uning turli qismlaridan foydalanishni angioarxitektonikasiga bog‘liq xolda baholash uchun MSKT angiografiya tekshiruvining ahamiyati aniqlanadi;

-yo'g'on ichak transplantatini qon bilan ta'minlashining adekvatligini intraoperativ baholashda Doppler UTT tekshiruvining o'rni va samaradorligi aniqlanadi;

-yo'g'on ichakning angioarxitektonikasining xususiyatlariga qarab kolotransplantat uzunligining haddan tashqari uzunligi yoki yetarli emasligi kabi asoratlarning oldini olishga yordam beradigan yo'g'on ichak transplantatlarini shakllantirishning yangi usullari ishlab chiqiladi;

-qizilo'ngach bo'yin qismi chultog'i bilan anastomoz qo'yish uchun transplantatni uzaytirish imkonini beruvchi kesuvchi apparatlarning turli xil variantlarini birgalikda qo'llash bilan oshqozon transplantatini shakllantirishning yangi usullari ishlab chiqiladi;

-operatsiya rekonstruktiv bosqichida nastomoz satxi (bo'yin, plevra yoki qorin bo'shlig'i) va transplantat shakllantirilgan organlar (oshqozon, ingichka yoki yo'g'on ichak) qarab, mexanik va qo'l yordamida shakllantirilgan anastomozlar uchun differensial tanlov ishlab chiqiladi;

-operatsiya keyingi erta va uzoq muddatli natijalarni, shakllantirilgan qo'l va mexanik anastomozlarni tahlil qilish asosida qizilo'ngach va oshqozonda rekonstruktiv qayta tiklash operatsiyalarining o'ziga xos asoratlarini oldini olish yo'llari ishlab chiqiladi;

torakoabdominal xirurgiya bo'yicha mutaxassislar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi

Natijalarni sinovdan o'tkazish. Tadqiqotlar natijalari Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovlardan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Sog'liqni saqlash vazirligi xulosasi olinadi.

Natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi.

Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalari Sog'liqni saqlash vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi